



Ommaviy Axborot Vositalarining Yoshlar O‘Rtasida Harbiy-Vatanparvarlik G‘Oyalarini Targ‘Ib Qilishdagi Roli Va Samaradorligi

**Yuldashev Furqat Bekturdiyevich,
Sikl boshlig‘i**

Роль И Эффективность Средств Массовой Информации В Продвижении Военно-Патриотических Идей Среди Молодежи

The Role And Effectiveness Of The Media In Promoting Military-Patriotic Ideas Among Youth

**Юлдашев Фуркат Бектурдиевич
Начальник цикла**

**Yuldashev Furqat Bekturdiyevich
Head of the Cycle**

ABSTRACT

Ushbu maqolada hozirgi kunda juda ham dolzarb bo‘lib qolgan internet va ommaviy axborot vositalarining yoshlar ongiga ta’siri, uning vatanparvarlik ruhida tarbiyalanishidagi asosiy prinsiplariga qaratilgan. Bundan tashqari Jamoatchilik nazoratining mamlakat rivoji uchun ahamiyati tahlil qilingan.

ARTICLE INFO

Received: 14th March
2026

Accepted: 11th
April, 2026

KEY WORDS:

vatanparvarlik,
jamoatchilik nazorati,
burch, internet, axborot.

Аннотация: В данной статье речь идет о влиянии Интернета и средств массовой информации, весьма актуальных сегодня, на сознание молодежи, а также основных принципах ее воспитания в духе патриотизма. Кроме того, анализируется значение общественного контроля для развития страны.

Ключевые слова: патриотизм, общественный контроль, долг, Интернет, информация.

Abstract: This article focuses on the influence of the Internet and mass media, which are very relevant today, on the minds of young people, and the main principles of their upbringing in the spirit of patriotism. In addition, the importance of public control for the country's development is analyzed.

Key words: patriotism, public control, duty, Internet, information.

Globalashuv davrida ilmiy rivojlanish hamda fan-texnika taraqqiyoti bilan axborotlashgan jamiyatning yuzaga kelishi natijasida voqea va hodisalarning o'ta jadal sur'atlarda davomiyligi qaror topmoqda. Faol iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni amalga oshirayotgan jamiyatimiz shiddat bilan oqib kelayotgan va o'z ichiga turli g'oya hamda maqsadlarni qamrab olgan minglab axborotlar oqimi ichida o'z milliy davlatchilik manfaatlarini himoya qiluvchi hayot tarzini mustahkamlab bormoqda. Aynan shu holatdagi hayot tarzida jamiyatimiz yoshlarining axborotlashgan tizimda o'z o'rinlarini topa olishlari, kundalik hayotimizga kirib kelayotgan ko'plab ijobiy axborot oqimidan unumli foydalana olishlari, milliy davlatchiligimiz va ma'naviy qarashlarimizga zid bo'lgan axborot oqimlaridan vaqtida o'zlarini himoya qila olishlari, mafkuraviy jihatdan "g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan" kurasha bilishlari kelajagimiz taraqqiyotini belgilab beruvchi muhim omildir.

Hech kimga sir emas, har qanday mamlakatning ertangi kuni, farovon turmush va Vatan taraqqiyoti o'sha jamiyat yoshlarining qo'lidadir. O'ta notinch va har xil qarashlar, mafkuraviy ziddiyat hamda qonli to'qnashuvlardan holi bo'lmagan yer yuzining turli mintaqalarida ma'lum bir davlat yoki jamiyat yoshlari kimlarningdir manfaatlarini ko'zlangan vayronagarchilik g'oyalarining ijrochisiga aylanib qolmoqdalar. Jahon miqyosida yuzaga kelgan va davom etayotgan ma'naviy bo'shliq, mafkuraviy kuchsizlik va milliy iftixor hamda g'urur hissining zayiflashuvi oqibatida ommaviy madaniyat unsurlari, diniy fundamental qarashlar, e'tiqod, millat va irqiy ayirmachilik, zo'ravonlikni targ'ib etuvchi ekstremistik oqimlar keng tarqalayotganligi va bu salbiy holat umumjahon hamjamiyatiga jiddiy xavf solayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz. Zero, qator sharq va g'arb davlatlaridagi ayanchli holat, mazkur jarayonlarda yoshlarning ishtiroki bu fikrlarning to'g'riligi yuzasidan o'z isbotini topmoqda. Jamiyat va xalq oshoyishtaligi, yurt farovonligi va milliy davlatchilik manfaatlaridan shaxsiy manfaatlar ustun qo'yilmoqda, azaliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan mafkuradan og'ishib, buzg'unchi g'oyalar ilgari surilmoqda, milliy va diniy bag'rikenglik darz ketib, millatchilik hamda diniy ayirmachilik avj olmoqda.

Mustaqilligimizning ilk kunlaridanoq yoshlarimizga bo'lgan e'tibor alohida ahamiyat kasb etib, yoshlar masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Davlatimiz boshchiligida yoshlarga oid davlat siyosati belgilab olindi, milliy ta'lim modeli shakllantirildi, ta'lim tizimining huquqiy asosi qaror topdi va kafolatlandi. Yoshlar ta'limning mazmun-mohiyatiga fundamental bilimlarni puxta o'zlashtirish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularni kasb va mutaxassisliklarga yo'naltirish, shuningdek, yoshlarimiz ongida har qanday yot va buzg'unchi g'oyalarga qarshi tepki bera oladigan mafkuraviy immunitetni shakllantirish maqsad qilib qo'yildi.

Cheksiz va turli g'oyalarni targ'ib etuvchi axborotlar oqimi buxronida qolgan umumjahon axborotlashgan jamiyatida yoshlarimizga u yoki bu axborot manbalari yoki mazmun va mohiyatlarini taqiqlab qo'yish mantiqsizlik bo'lar edi. Bu holat ma'lum bir ma'noda turli sohalardagi taraqqiyot rivojiga to'sqinlik qilishi ham mumkin. Biroq, bugungi kunda Vatanimiz yoshlari cheksiz va turfa axborot oqimlaridan to'g'ri hamda oqilona foydalana oladilarmi? Zarur bo'lganda salbiy axborot oqimlariga qarshi turib, o'z shaxsiy fikrlarini bildira olish, fuqarolik pozitsiyalarini saqlab qolish, milliy mafkuramiz, davlatchiligimiz va jamiyatimiz manfaatlarini himoya qilish qobiliyatiga egami?

Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarda yoshlarimizning faol ishtirok etishi, davlat va fuqarolik jamiyati qurilishidagi ularning o'rni, fuqarolik burch, huquq va majburiyatlarini amalga oshirishda ularning faolligi yuqoridagi ikkilanuvchi qarashlarning asossiz ekanligini isbotlab bermoqda. Prezidentimiz boshchiligida davlatimiz har bir sohadagi islohotlarda yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularni himoya qilish maqsadini ustuvor deb bilmoqda. Ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodni yuksak harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, yoshlarimizni kelajakda Vatan himoyachilari sanalgan harbiy sohaga yo'naltirish faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur yo'nalishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 5-iyuldagi 5106-sonli "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish"ga doir farmoyishining tegishli bandida "Buyuk davlat arbobi va sarkarda sohibqiron Amir Temurning Vatanga sadoqat, el-yurtni ardoqlash, mardlik, fidoyilik va adolatparvarlik kabi yuksak fazilatlarini yosh avlod uchun o'rnak bo'lib xizmat qilishini inobatga olgan holda yosh avlodni harbiy vatanparvarlikka yo'naltirish ishlarini yangi bosqichga olib chiqdi.

Oliy ta'limda ta'lim-tarbiya va harbiy sohaga yo'naltirish jarayonini tashkillashda axborot xavfsizligiga jiddiy e'tibor qaratish zarur. Axborotlashgan jamiyatda yuzaga keluvchi turli muammolarga tez va to'g'ri yechim topa olish, har qanday vaziyatda ham jamiyat va milliy davlatchiligimiz manfaatini ustun bilish, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy munosabatlarda qonun ustuvorligini ta'minlash, milliy ma'naviyatimiz va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq qolish kabi qator omillarni yoshlarimiz, xususan, ta'lim oluvchilarining ongida shakllantirishda bugungi kunda, kim bo'lishidan qat'iy nazar, jamiyatimizning har bir vakili mas'uldir. Bu sohada, ayniqsa, farzandlari kamoliga ko'z tikib turgan ota-ona va butun mahoratlarini o'z kasbiga bag'ishlagan ta'lim tizimi pedagoglaridan yuz chandon ko'proq xushyorlik hamda ogohlik talab etiladi. Oilada, mahalla-ko'ylarda, bilim maskanlarida, ta'lim dargohlarida yoshlarimizning yurish, turish, qiziqish va dunyoqarashlaridan ogoh bo'lish; ularning fikrlariga quloq tutish, mulohazalarini o'rganish; ijobiy fikrlarini, bunyodkorlik g'oyalarini, faoliyatlaridagi yutuqlarini qo'llab-quvvatlash, rag'batlantirish; fikr va mulohazalaridagi ikkilanishlarida yordamchi bo'lish, ijobiylik va to'g'ri yo'l sari yo'naltirish; mavjud muammolarini ijtimoiy hamkorlik asosida hal etish va qayta takrorlanmasligi uchun ularning oldini olish zarur. Zero, Prezidentimizning 2024-yil 28-iyundagi "O'smirlarning harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar va dalat xizmati uchun kadrlar zahirasi tayyorlash tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida "Yuksak intellektual salohiyatga, zamonaviy fikrlash hamda dunyoqarashga ega, davlatimiz manfaatlari va suverenitetini fidokorona himoya qilishga tayyor bo'lgan har tomonlama kamol topgan, jismonan sog'lom va ma'naviy yetuk yosh avlodni tarbiyalash tizimini yaratish"da axborotlashgan jamiyatning yoshlarimiz oldiga qo'yayotgan qator muammo va ularning yechimlarini ijobiy hal etish, zamonaviy kommunikatsiya vositalaridan samarali foydalanish, kompyuter va internet tizimini qo'llashda yuksak savodxonlikni ta'minlash, axborot xavfsizligi yuzasidan optimal natijalarga erishish va ularning samaradorligini ta'minlash barchamizning oldimizga qo'yilgan o'ta mas'uliyatli vazifadir.

Vatanni har kuni madh etish bilan vatanparvarlik tuyg'usi paydo bo'lmaydi. Agar shunday bo'ladigan bo'lsa, hamma qo'shiqchilar "vatanparvar" hisoblanishadi. Vatanparvarlik degani bu hammaning o'z ishiga sadoqat va vijdonan yondashishidir. Xullas agar jamiyatda qandaydir kemtik paydo bo'lsa, bu kimningdir o'z burchiga sovuqqonlik bilan qaragani natijasi bo'ladi. Vatanparvarlik- bu o'z kasbini sidqidildan bajarishdir.

Hozirgi davrda axborot xurujlarini tashkil etuvchi va tarqatuvchi asosiy maydon – bu global internet tarmog'idir. Internet axborot makonining muhim bo'g'ini hamda axborot xurujlarining eng samarali vositalaridan biri biri bo'lib qolmoqda.

Pedagoglar yoshlarni axborot-psixologik xurujlari ta'siriga tushib qolishining ijtimoiy omillari va uni bartaraf etish yo'llari xususida quyidagilarni e'tiborga olishlari zarur:

Birinchidan, yoshlarimizni yuksak ma'naviyatli qilib tarbiyalash. Bu borada tarbiyaviy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni yanada kuchaytirishimiz kerak, ushbu ishlarni tashkil etishda keng jamoatchilikni, davlat va siyosiy arboblarni, diniy vakillarni, veteranlarni muntazam taklif qilgan holda o'tkazish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan, yoshlarimizda kitobga bo'lgan muhabbatni uyg'otish. Bu borada milliy va jahon adabiyoti namoyandalarining yetuk asarlarini tarbiyaviy va ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimida yozuvchi va shoirlarni taklif qilgan holda mutoalaa kechalarini o'tkazish, hamda eng yaxshi kitobxon ko'rik tanlovlarini tashkil etish kerak.

Uchinchidan, ta'lim oluvchilarning huquqiy ongini shakllantirish va bu borada huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari bilan tez-tez suhbatlar, uchrashuvlar tashkillashtirib turish zarur.

To'rtinchidan, internetdan foydalanish madaniyatini shakllantirish, buning uchun salbiy yot g'oyalarning ta'sirlarini yanada chuqurroq o'rganib, bu borada targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish maqsadga muvofiq.

Beshinchidan, ijtimoiy tarmoqlardan oqilona foydalanishni o'rgatish. Yoshlarimiz ongiga "Vaqtning behuda sarflash", "Vaqt isrofi", "Vaqtdan to'g'ri va unumli foydalanish" degan tushunchalarni sindirishimiz zarur.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyat xavfsizligiga raxna solish maqsadida mamlakat barqarorligiga putur yetkazishga intilayotgan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion xurujlar va xatarlarga qarshi doimo

ogoh bo'lish har birimizning muqaddas burchimizdir. Ayniqsa, axborot xurujlarining oldini olish, axborot xavfsizligini ta'minlash, mamlakatni ichki va tashqi xavflardan himoya qilishning muhim omillaridan biridir.

Xulosa qilib aytganda hozirgi paytda yer yuzining qaysi chekkasida qanday bir voqea yuz bermasin, odamzot bu haqda dunyoning boshqa chekkasida zudlik bilan xabar topishi hech kimga sir emas. Ana shunday vaziyatni hisobga olgan holda, yana va yana bir bor xalqimizning ma'naviy olamini bunday tahdidlardan asrash, hozirgi o'ta murakkab bir zamonda xalqaro maydonda sodir bo'layotgan jarayonlarning tub mohiyatiga yetib borish, ular haqida xolis va mustaqil fikrga ega bo'lish bugungi kunning eng dolzarb vazifasi, desak, hech qanday xato bo'lmaydi. Xulosa o'rniida yana shuni aytish mumkinki, jamiyatda axloq normalari yaxshi ishlasa, jamiyatda tartibsizlik va qonunbuzarlik bo'lmaydi. Shunday ekan biz XXI asrda axborotga boy jamiyatda yoshlarimizni burchga sadoqatli va o'z ishini sevuvchi qilib tarbiyalashimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Oila psixologiyasi: Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun. Muallif: V.M.Karimova. – Toshkent, 2017 y.
2. G'.B.Shoumarov, I.O.Xaydarov, N.A.Sog'inov "Oila psixologiyasi" Toshkent 2015 y.
3. M.Ergeshov. Harbiy xizmatchilar va ularning oilaviy munosabatlarning psixodiagnostikasi. O'quv qo'llanma. Chirchiq-2020 y.
4. Tashmetov, T. X. (2022). Milliy g'oyani yoshlar ongiga singdirishning zamonaviy usullari. *Academic Research in Educational Sciences*, 1 (3), 326-331.
5. Xolmo'minov, G'. B. (2023). Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda bilim va etiqodni muvofiqlashtirish usul va vositalari. *Academic Research in Educational Sciences*, 1 (3), 346-353.
6. Mavlanova, S. (2023). Ma'naviyatli yoshlar tarbiyasida barkamol avlod tarbiyasi. *Academic Research in Educational Sciences*, 1 (3), 482-486.
7. Madalimov, T. (2024). Qadimgi Xitoyda mantiq ilmining shakllanishi. *Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi*, 5(1), 51-52.